

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>T.S.Axmedova</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati .....	214
<b>Z.O.Qosimoy</b>	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
<b>M.A.Usmanov</b>	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
<b>A.A.Minavarov</b>	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
<b>G.K.Usmanova</b>	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati .....	231
<b>X.A.Madaminov</b>	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
<b>C.Y.Анварбекова</b>	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике .....	238
<b>Д.М.Азимова</b>	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии .....	242
<b>Д.Ф.Керимов</b>	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse .....	247
<b>S.A.Mirzaqobilova</b>	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	255
<b>J.Q.Mirzajonov</b>	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati .....	260
<b>F.O'.Toshboltaev</b>	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni .....	264
<b>R.D.Mustayev</b>	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi .....	267
<b>S.A.Xayrullayev</b>	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi .....	271
<b>N.M.Aliyev</b>	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
<b>G.I.Otaboyeva</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
<b>N.T.Abdullajonova</b>	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati .....	282
<b>Y.H.Teshayeva</b>	
Ilimga yo'g'rilgan umr .....	286
<b>Sh.B.Sattorova</b>	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
<b>M.F.O'rmonova</b>	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) .....	295
<b>S.A.Rahmonberdiyeva</b>	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari .....	298
<b>Sh.G'.Xasanov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash .....	303



УО'К: 101.1

**TEMURIYLAR DAVRI MUTAFAKKIRLARI VA ULARNING IJTIMOIY-AXLOQIY  
QARASHLARINING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY TAVSIFI**

**ФОРМИРОВАНИЕ И ФИЛОСОФСКАЯ ОПИСАНИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ПЕРИОДА ТИМУРИ И  
ИХ СОЦИАЛЬНО-ЭТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ**

**THE FORMATION AND PHILOSOPHICAL DESCRIPTION OF THE THINKERS OF THE TIMURI  
PERIOD AND THEIR SOCIAL AND ETHICAL APPROACHES**

Mustayev Ruslan Damirovich 

Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya*

*Maqolada Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishng nazariy-metodologik asoslari, ijtimoiy-axloqiy qarashlarining germenevtik asoslari, Yangi O'zbekistonda Temuriylar davri mutafakkirlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati o'rganilgan. Shuningdek, Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi tahlil qilingan.*

*Аннотация*

В статье рассмотрены теоретико-методологические основы исследования социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов, герменевтические основы их социально-этических взглядов, воспитательное значение социально-этических взглядов мыслителей эпохи Тимуридов, в Новом Узбекистане изучаются. Также проанализировано формирование мыслителей периода Тимуридов и их социально-этические взгляды.

*Abstract*

*In the article, the theoretical-methodological foundations of researching the socio-ethical views of the thinkers of the Timurid era, the hermeneutic bases of their socio-ethical views, the educational significance of the socio-ethical views of the thinkers of the Timurid era in New Uzbekistan are studied. The formation of thinkers of the Timurid period and their socio-ethical views was also analyzed.*

**Kalit so'zlar:** Temuriylar davri, tarixiy, ijtimoiy-madaniy shart-sharoit, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-axloqiy qarashlar, falsafiy, adolat, ilmiy-metodologik asos, tarbiyaviy, faoliyat, germenevtik asos, tarixiy-falsafiy tahlil.

**Ключевые слова:** Эпоха Тимуридов, исторические, социокультурные условия, социальная среда, социально-этические взгляды, философская, справедливость, научно-методологическая основа, образовательная, деятельность, герменевтическая основа, историко-философский анализ.

**Key words:** Timurid era, historical, socio-cultural conditions, social environment, social-ethical views, philosophical, justice, scientific-methodological basis, educational, activity, hermeneutic basis, historical-philosophical analysis.

**KIRISH**

Temuriylar davrining falsafiy fikri uchun xos narsa dunyoviy va diniy fanlarga murojaat, tabiatni o'rganishga intilish, inson aqli va qobiliyatlarining ko'tarilishi, insonning axloqiy sifatlarini qadrlash, insonparvalik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish edi. Shu ma'noda temuriylar davri insonparvarlik g'oyalari, ijtimoiy-axloqiy qarashlarning eng rivojlangan zamoni sifatida baholanadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Temuriylar davrining ilmiy-ma'naviy meros, mutafakkir allomalarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ijtimoiy ahamiyatiga doir tadqiqotlar A.Arberri, A.Kraft, Sharl Shefer, V.Perch, O.Omer, M.Rajabov, A.Afsahzod, A.Muxammedxodjayev, YE.E.Bertels, A.N.Boldirev, A.D.Knish, H.Aliqulov, Y.Jumaboyev, Sh.Mamidova, R.Mahmudov, N.Komilov, A.Madraimovlar tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, olimlardan B.Valixo'jayev, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov, S.Sayfulloh,

M.Kenjabek, M.N.Boltayev, R.Nosirov, G.Navro'zova, S.Karimov, R.Shodiyev, A.Huseynova, J.Xolmo'minov kabi olimlarning monografik tadqiqotlarida temuriylar davri o'rganilgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Temuriylar davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan biri qat'iy tartib o'rnatishga erishganligi, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lif ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa sultanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda "Temur tuzuklari" da quyidagi so'zlar bitilgan: "Sultanatim martabasiga zeb-u – ziynat berdim. Sultanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Sultanatim qonun-qoidalarni ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim".

Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida e'tibor bergani, ularni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qilgan, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi. Temur kengashib, maslahatlashib o'tkazilgan tadbir sanoqsiz lashkar ojizlik qilgan kuchni yengishga imkon beradi, deb hisoblagan. Ana shuning uchun ham u olimlar va ruhoniylarga murojaat qilib, ulardan mamlakatni boshqarishda o'z maslahatlari bilan yordam berishlarini so'ragan. Bu jihatdan Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobida berilgan Temurning yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida olim-fuzalolar bilan o'tkazgan kengashi haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Bu kengashdagi nutqida u shunday degan: "Fan va dinning mashhur kishilar o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatdaadolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishga menga o'z maslahatlarining bilan ko'maklashishlaringiz kerak".

Temuriylar davrida ilm-fanning qaytadan rivoj topishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan yana biri qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy, Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bo'ldi. Turli mamlakatlardagi ilmiy markazlar, olimlar o'tasidagi aloqalarning o'rnatilishi, xalqlarning bir-birining tarixini, madaniyatini o'rganishi, ilm-fan sohasidagi erishgan natijalari bilan tanishishi ilmiy bilimlar taraqqiyoti uchun qulay sharoit tug'dirgan.

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan alloma Sa'duddin Taftazoniy 1322-yilda Ashxobod yaqinidagi Niso shahri atro-fidagi Taftazon qishlog'ida tug'ildi. Taftazoniy ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va mantiq sohalarini mukammal egallaydi. Bu fanlarni o'z davrining mashhur olimlari bo'lgan Aziddin Ijiy va Qutbiddin Roziy at-Taxtoniylardan o'rganadi. Taftazoniyning 16 yozganda yozgan birinchi ilmiy asari unga shuhrat olib keldi va uning madrasada mudarrislik qilish huquqini qo'lga kiritishiga sabab bo'ldi. Taftazoniy G'ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Movarounnahrning boshqa shaharlaridagi madrasalarda dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozondi. Ayniqsa mantiq, nutq san'ati, arab tili grammatikasi va ilohiyot sohalarida unga teng keladigan olim kam topilar edi. Uning zamondoshi mashhur arab tarixchisi Ibn Xaldun Taftazoniy haqida quyidagilarni yozgan edi: "Movarounnahr dan chiqqan quyoshning nuri arab mamlakatlari va Ispaniyagacha yetib kelmoqda". Taftazoniyning shuhrati o'z poytaxti Samarcandga eng mashhur olimlar, hunarmandlar va ustalarni to'playotgan Amir Temurga ham yetib boradi. U Taftazoniyi Samarcandga chaqirtiradi. Taftazoniy umrinning oxirigacha saroyda yashaydi va 1392 yilning 12-avgustida vafot etadi.

Taftazoniyning nazariy merosi o'rtasular fanining barcha sohalarini o'z ichiga oladi. Qur'on tafsiridan boshqa asarlar arab tilida yozilgan bo'lib, ular ichida mantiq, nutq san'ati va arab tili grammatikasiga oid risolalari alohida o'rinn tutadi. Bu risolalardan XIV asrning ikkinchi yarmidan XVI asrning ikkinchi yarmigacha Movarounnahr va uning atrofidagi o'lkalar madrasalarida o'quv qo'llanmasi sifatida foydalilanilgan. Mashhur sharqshunos YE.E.Bertels o'z tadqiqotlarida fors she'riyatining buyuk klassigi Abdurahmon Jomiy she'riyat va nutq san'atini Sa'duddin Taftazoniy asarlardidan o'rganganligini ko'rsatib o'tadi.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar yozgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan asarlardan diqqatga sazovorlari quyidagilar: "Tahzib al-mantiq val-kalom" ("Mantiq va kalomga sayqal berish"), "As-sa'diya" (XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan Kotibiyning mantiqa oid "Ash-shamsiya" risolasiga yozilgan sharh), "Al-mutavvol" (Nutq san'atiga oid "Keng talqin"), "Muxtasar

## ILMIY AXBOROT

al-maoniy” (riterikaga oid “Qisqacha ma’nolar”), “Al-irshod al-xodiy” (arab tili grammatikasiga oid “Yo’l boshlovchi rahbar”), “Al-maqosid at-tolibin” (falsafa va kalomga oid “Tolib ilmlarning maqsadlari”), “Risola fi zavoye al-musallas” (“Uch burchakning burchaklari haqida risola”). Bulardan tashqari Taftazoniy o’zidan oldingi o’tgan mutafakkirlarning asarlariga ko’plab sharhlar va hoshiyalar yozgan.

Taftazoniy dunyoqarashidagi diqqatga sazovor masalalardan biri qazo va qadar hamda iroda erkinligidir. Ma’lumki, iroda erkinligi masalasida ko’plab faylasuflar har xil fikrlar bayon etishgan va inson o’z xulq-atvorida erkinmi, ya’ni ixtiyori o’z qo’lidami, degan savolga javob topishga intilganlar.

Sa’duddin Taftazoniy o’zining “Tahzib al-mantiq val-kalom” asarida insonning xulq-atvorida iroda erkinligi masalasiga kengroq to’xtaladi. Uning fikricha, har qanday olijanoblik va xayrli ishlar o’z tabiatiga ko’ra xudoning mohiyatidan kelib chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida xayr va sharofatning yaratganligi sababidan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo’lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgandir. Shunday qilib, uning fikricha, xudo – o’z bandalariga ikki yo’lni “taklit” etadi, ya’ni sharaflı, xayrli faoliyat ko’rsatishni yoki nomatlub mashg’ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa jazoga tortilishni keltirib chiqaradi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, xudo tomonidan ko’proq insonlarga xayrli ishlar qilish, g’ayri shar’iy ishlar kamroq bo’lishi ta’kidlanadi. Qaysi yo’lni tanlash insonning o’z irodasiga bog’liqdir. Shuning uchun xudo yomon xulq-atvori insonlarni jazolaydi. Yomon xulq-atvorni qoralash xudoning irodasiga qarshi borish emas, chunki yomonlikning yer yuzida mavjudligi insonlarni poklikka chorlovchi sinovdir.

Taftazoniy Temur davridagi Samarcand ilmiy muhitida o’sha zamon olimlari bilan bиргаликда samarali ijod etib, keyinchalik jahonshumul ahamiyat kasb etgan Ulug’bek mакtabini vujudga kelishiga zamin hoziragan mutafakkirlardan biri bo’lib tarixda qoldi. U islam falsafasi bo’lgan kalomga mantiqiy xulosalarni tatbiq etib, uni kuchaytirdi va ilohiyotni ham jozibali fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo’shdi. Uning asarlarining ilmiy qimmati hozirda ham o’z kuchini yo’qtgani yo’q. Taftazoniyning ilmiy merosini o’rganish tafakkurimiz tarixining zarhal sahifalarini boyitish imkonini beradi.

Temuriylar davringi yangi bir mutafakkiri Mir Sayyid Sharif Jurjoniydir. Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarcandning shon-shuhratini oshirish va uni jahon ilmiy markazlaridan biriga aylantirish niyatida o’z poytaxtiga to’plagan olimlardan biri bo’lgan. U 1387-yili Sheroz fath etilganidan keyin, u yerdagi mashhur kishilar qatorida Samarcandga jo’natilgan. Jurjoniy deyarli 20 yil davomida Samarcandda barakali ijod qilib, faqat Temur vafotidan keyingina Sherozga qaytib, 1413-yili o’sha yerda vafot etdi.

Ilmiy adabiyotlarga Mir Sayyid Sharif nomi bilan kirgan Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayniy Jurjoniy 1339-yilda Eronning Jurjon viloyati Markazi bo’lgan Astrobod shahri yaqinidagi Tog’u qishlog’ida tug’ildi.

Jurjoni yoshlik yillardan Sharqda mavjud bo’lgan fanlarning barcha turlari bilan shug’ullandi. Islam falsafasi va kalom, mantiq, til masalalaridan tashqari tabiatshunoslikka doir sohalarni qunt bilan o’rganib, ular haqida katta ilmiy asarlar yozib qoldirdi. 1365-yili Jurjoniy Hirota mashhur faylasuf Qutbiddin Muhammad ar-Roziy at-Taxtoniydan ta’lim olish uchun boradi. Ammo Taxtoniy o’zining qarib qolganligini aytib, Misrdagi shogirdi Muborakshoh oldiga borishni maslahat beradi. Lekin Jurjoniy 1368-yilgacha Hirota qoladi. So’ng’ra turk faylasufi Muhammad Oqsaroiydan ta’lim olish uchun Qoramон shahriga jo’naydi. Muhammad Oqsaroyning shuhrati va uning asarları Jurjoni e’tiborini jalb etgan bo’lib, u mashhur faylasuf va mantiqshunos bo’lib yetishgan Oqsaroyning shogirdi Muhammad Mullo Fanoriy bilan uchrashib, do’st tutinadi va bиргаликда 1370-yilda Misrga jo’nashadi. Jurjoniy Qohirada 4 yil davomida mashhur mantiqshunos Muborakshoh va Akmaliddin al-Bobartiylar ma’ruzalarini tinglab, o’z saviyasini oshirgach, 1374-yilda Istambulda ilmiy izlanishlarini davom ettiradi. U yerdan Vataniga qaytib, 1387-yilgacha Sheroz madrasalarida dars beradi. So’ng Samarcandda madrasalarda dars berish bilan birga Temur saroyidagi ilmiy bahslarda faol ishtirok etadi. Bu yerda u ilmu fanning barcha sohalariga bag’ishlangan bir qator risolalar, o’tmish mutafakkirlarining asarlariga sharhlar yozadi.

**XULOSA**

Xulosa qilganda, temuriylar davrda buyuk mutafakkir olimlar, allma-yu donishmandlar yetishib chiqdilar. Ulardan ilm-fanga hissa qo'shganlari quyidagilar: Mavlono Abdulmalik, Sayyid Sharif Jurjoni, Xoja Muhammad Zohid Buxoriy, Mavlono Ahmad, Abdulqodir Marog'iy Nizomiddin Shomiy, Hofizi Abru, ibn Arabshoh shular jumlasidandur. Amir Temur bobomiz ularning boshini silaganlar, homiylik qilganlar. Ilmiy ishlariga rahnomolik qildi. Qur'on va Hadis ilmidan tashqari, fiqh (musulmon qonunchiligi), tarix, falsafa, musiqa, riyoziyot, falakiyot va boshqa bir talay ishlar rivoj topdi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. А. Навоий. Асарлар, 12-том, "Мажолисун нафоис", еттинчи мажлис, Т., 1967, 169-бет
2. А.Жомий. «Искандар хираднома»си. Кўрсатилган асар. 221-225-б.
3. Дуктур Мұхаммад Муъин. Фарҳанги Форсий. – Техрон, 1371. – Б. 16.
- 4.Ибн Халдун. Ал-Муқаддима.–Ал-Қоҳира: Дор ал-китаб Ал-Мисрий ва ал-Лубнаний, 1999. –В.10.
5. Тўғон А. З. Волидийнинг Туркистонга илмий сафари. “Тарихда усул” асаридан А. Зоҳидий таржимаси.– Тошкент, 1997. – Б. 135
6. Улуғбек. Зики Кўрагоний-Т, Қори Ниёзий. Улуғбек ва унинг илмий мероси. Тошкент., 1971 110-159 бетлар